Oriental Journal of Biology and Chemistry





Шарқ биология ва кимё журнали

Восточный журнал биологии и химии

UZBEKISTAN

SJIF 2021-5.76
2022-5.799

ISSN : 2181-2748

2022

OPEN ACCESS JOURNAL

www.supportscience.uz/index.php/ojbc
info@supportscience.uz

“Шарқ биология ва кимё журнали”/ “Oriental Journal of Biology and Chemistry”/ “Восточный журнал биологии и химии ”

ISSN : 2181-2748 SJIF 2022: 5.799

Адҳам Мамаджонов нашрга тайёрлади, e-mail: s.science@internet.ru, (99)6929148

МУНДАРИЖА


DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojbc-02-02-01 Pages: 1-8

Oriental Journal of Biology and Chemistry **SJIF 2021-5.76, 2022-5.799**



ORIENTAL JOURNAL OF BIOLOGY AND CHEMISTRY

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojbc



INFORMATION ON THE BIOLOGY OF ACRIDOTHERES TRISTIS

Boymurad N. Doniyorov
Senior Lecturer
Bukhara State University
Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: myna, egg, chick, magpie, rook, hen, grasshopper.

Received: 01.10.22
Accepted: 03.10.22
Published: 05.10.22

Abstract: The relevance of the topic in the article, the distribution of Acridotheres tristis, mating characteristics and its study, the duration of the research and the methods used in the work, the number of nests found, nesting places, mating places and their number, mating, breeding behavioral responses, number and location of nests, nesting interspecific relationships, nesting duration and use, nest shape, dimensions, nest location, nest construction, nest components and morphometric dimensions, egg laying and duration and brood care during incubation, changes in the egg, hatching, chick size, growth and development, reproduction images, relationship of the new generation to the nest , information about the night, relations with historical monuments, biological characteristics such as nutrition and food types and their importance were studied.

ACRIDOTHERES TRISTISNING BIOLOGIYASIGA DOIR MA'LUMOTLAR

Boymurod N. Doniyorov
katta o'qituvchi
Buxoro davlat universiteti
Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mayna, tuxum, jo'ja, zag'izg'on, go'ng qarg'a, tovuq, chigirtka.

Annotatsiya: Maqolada mavzuning dolzarbligi, Acridotheres tristisning tarqalishi, uchrash xususiyatlari va uning o'rganilganligi, o'tkazilgan tadqiqotlarning muddati va ishni bajarishda foydalanilgan usullar, topilgan uyalar soni, uyalash joylari, uchrash joylari va

soni, sayrashi, juft hosil qilishi kabi ko‘payish bilan bog‘liq xulqiy reaksiyalari, uyalar soni va joylashishi, uyalashda turlararo munosabatlar, uyalash muddati va undan foydalanish, uya shakli, o‘lchamlari, uyasining joylashishi, uya qurishi, uyaning tarkibiy qismlari va morfometrik o'lchamlari, tuxum qo‘yishi va muddati hamda ularni isitish jarayonidagi nasl g'amxo'rligi, tuxumda bo‘ladigan o‘zgarishlar, jo‘ja ochishi, jo'jalarining o'lchamlari, o‘sishi va rivojlanishi, ko‘payishga doir tasvirlar, yangi avlodning uyasi bilan bog‘liqligi, tunashiga oid ma’lumotlar, tarixiy yodgorliklar bilan munosabati, oziqlanishi va oziqa xillari kabi biologik xususiyatlari hamda ahamiyati o‘rganilgan.

ИНФОРМАЦИЯ О БИОЛОГИИ ACRIDOTHERES TRISTIS

Боймурад Н. Дониеров
Старший преподаватель
Бухарский государственный университет
Бувхара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: майна, яйцо, птенец, сорока, грач, курица, кузнечик.

Аннотация: В статье раскрывается актуальность темы, распространение Acridotheres tristis, особенности спаривания и его изучение, продолжительность исследований и использованные в работе методы, количество найденных гнезд, места гнездования, места спаривания и их количество, размножение, спаривание и др. поведенческие реакции, количество и расположение гнезд, гнездовые межвидовые отношения, продолжительность гнездования и его использование, форма гнезда, размеры, расположение гнезда, конструкция гнезда, компоненты гнезда и морфометрические размеры, яйцекладка и продолжительность и их выводок уход во время инкубации, изменения в яйце, вылупление, размер цыпленка, рост и развитие, изображения воспроизводства, отношение нового поколения к гнезду, информация, связанная с ночевкой, связь с историческими памятниками, биологические характеристики, такие как питание и типы пищи, и их значение было изучено.

KIRISH

Buxoro shahri sharoitida oddiy maynaning bioekologiyasiga oid ilmiy tadqiqot va kuzatishlarimizni 2007-2022 yillarda olib bordik. Shunga asosan bu qushni Buxoro shahridagi barcha muhitlarda yil davomida uchrashi, yuksak darajada moslashganligi uchun soni va ahamiyati jihatidan ekotizmda oʻziga xos oʻrinni egallashi hamda yuqori zichlikka ega boʻlishi guvohi boʻldik. Qolaversa, shahar hududida sonining koʻpligi, serharakatligi, tajovuskorligi uni boshqa turlardan ajratib turishi bilan kishi e'tiborini oʻziga tortadi.

ASOSIY QISM

E. Sh. Shernazarov ma'lumotiga koʻra 1976 yilning qishida Toshkent aviatsiya zavodi sexida 4000 ta, 1980 yil chinni zavodi sexida 5000 ta atrofida maynalarning tunashi bizga manbalardan ma'lum. Shahsiy tadqiqotlarimizda mayna kuz va qish fasllarida asosan 5-40 tagacha individdan iborat kichik, ba'zan 200-400 tagacha individdan iborat oʻrta va ahyon-ahyonda 2000-3000 tagacha individdan iborat katta guruhlar hosil qilib oziqlanish, bir joydan ikkinchi joyga koʻchish, tunash, dam olish, raqobatlashish va himoyalanish kabi hayotiy jarayonlarni amalga oshirishi aniqlandi. Besh mingtagacha individdan iborat eng katta kolloniyasini 2010 yilning 10 yanvarida oziqlanish jarayonida Buxoro Avtoshohbekat yaqinidagi koʻl atrofi(hozirgi Buxoro madaniy markazi majmuasi)da uchratildi.

Iqlimiy omillarning nomoyon boʻlishiga koʻra ba'zan dekabr oyida ham juft holdagi va uya qurayotgan mayna oilalarini koʻrish mumkin. Biroq koʻpayish bilan bogʻliq jiddiy oʻzgarishlar fevral oyining boshlarida maynalarning bir holatda juftlarga ajralganligini, ikkinchi bir holatda hali ham 7-15 tagacha individdan iborat guruh boʻlib, oʻz arealida nomoyon qiladigan xulqiy reaksiyalarida koʻzga tashlanadi. Mart oyinining uchinchi dekadasiga kelib uya qurishga kirishganligini kuzatish mumkin.

Maynalar uyalarini zagʻizgʻonlarning eski inlariga, ta'mir talab binolardagi teshik-tarqamlarga, himoyalanmagan karnaklar ichiga, suv quvirlari atrofiga oʻralgan gʻiloflar orasiga oʻz turiga xos mahorat bilan joylashtiradi. Zagʻizgʻonlarning eski inlaridan foydalanishda maynaga koʻk kaptar, qumri, choʻl sogʻi kabi oʻzga turlar va oʻz turdoshlari raqobatchi boʻladi. Uya materialini tanlashda qush atrofdagi tez va oson topiladigan xom-ashyoga murojat etadi. Jumladan, tut, olma, oʻrik, qaroli, olmurut kabi daraxtlarning barglari hamda shoxchalari, oq pilyonka, turli shirinliklarning qadoqlari, qora selofan, iplar, koʻp yillik oʻsimliklarning tana qismlari, audio kasetalarining lentalari, qoʻy, sigir, otlarning jun-qillari, goʻng qargʻa, koʻk kaptar, tovuq kabi qushlarning kontur patlari bunga yorqin misol boʻladi.

Maynaning koʻpayish sikli ancha choʻziq boʻlib, uning ikkita tuxumli uyasining (17.08.1967) va 10-12 kunlik joʻjali uyasining (02.09.1970) topilishi ham buni isbotlaydi (Baqoyev, 1994).

Mayna 4-6 ta tuxum qo‘yadi, tuxumlarining po‘chog‘i och havorang-ko‘kish tusda bo‘ladi. Tuxumlar har kuni bittadan yoki kunora qo‘yilganligini kuzatish mumkin. Uyalardagi tuxumlarning soni, katta-kichikligi va shakli turlicha bo‘ladi. Mayna tuxumlarining morfometriyasi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

Mayna tuxumlarining o‘lchamlari (n=9)

Tuxumlarning o‘lchamlari, mm., g				
Uzunligi	Eni	Uchki eni	Tubining eni	Massasi
31,0	22,0	18,5	19,2	8,1
30,6	21,8	18,6	19,8	7,9
31,8	22,0	19,1	20,9	8,4
32,4	22,0	18,8	20,7	8,7
29,6	20,8	15,7	18,7	6,9
29,4	20,8	16,9	19,3	6,8
30,0	21,0	18,4	20,0	7,1
29,3	21,0	18,5	19,0	6,9
29,3	21,0	18,0	18,9	6,9

Tuxum bosish uyaga birinchi tuxum qo‘yilishi bilan boshlanadi. Tuxum bosishda urg‘ochi jins faolroq bo‘ladi. Tuxumlarni urg‘ochisi va erkagi 15 kun bosib isitadi. Tuxumidan chiqgan jo‘jalarining quloq teshiklari yopiq, ko‘zlari ojiz, tanasi pat va parsiz hamda nimjon va zaif bo‘ladi.

Rivojlanishning 4-kuni quloq teshiklari, 6-7 kunligida ko‘zlari ochiladi va tanasida par-patlarning elimentlari shakllanib, terisining rangi qizildan qora tusga to‘qlasha boshlaydi. Maynaning jo‘jalari xuddi ko‘k kaptar, qumri va musichaning polaponlariga o‘xshab tez rivojlanadi va 24 kunda uyasidan uchib chiqadi. Quyida oddiy maynaning ko‘payish sikliga oid rasmlar tasvirlanadi



Mayna oilasi Uya qurayotgan mayna



Mayna jihozlagan zag‘izg‘on uyasi   Zag‘izg‘on uyasidagi mayna tuxumlari



36 soatlik mayna jo‘jasi va uning tuxumi   Oziq talab qilayotgan mayna jo‘jalari



O‘n besh kunlik jo‘ja   Voyaga yetgan mayna



Ninachi lichinkasini ovlayotgan mayna Ektoparazitlarga maynaning javob reaksiyasi

1-rasm. Oddiy maynaning ko‘payish sikli

Maynaning ko‘payish samaradorligi (n=6) Buxoro shahrida 54,8 % (Xolboyev, 2000) ni, Farg‘ona vodiysi shaharlarida 66,1 % (Sharipov, 1974) ni, tashkil etgan bo‘lsa, Buxoro shahrida (n=3) bu ko‘rsatgich 54,6 % ni tashkil etdi. Bunda tuxumlar chiqiti 45,5 % ni tashkil etdi (4 ta tuxum kushandasi-zag‘izg‘on tomonidan, 1 ta tuxum tadqiqot jarayonida shikastlanish oqibatida nobud bo‘ldi). Mayna asosan chigirtkalar bilan oziqlanadi. Bir juft mayna yiliga 150 000 taga yaqin chigirtkalarni qirishini (Simonov,1977; Bogdanov, 1983), ot, sigir va qo‘ylar tanasi va atrofidagi pashsha, so‘na va bashqa parazitlarni terib yeyishini, kuz va qish fasllarida axlatxonalarda va shahar hududidagi yo‘l chekkalarida turli chiqindilar bilan oziqlanishi hisobidan sanitarlik vazifasini bajarishini inobatga oladigan bo‘lsak, mayna juda ham foydali qush hisoblanadi. Lekin, maynaning shahar sharoitida yuqori zichlikka egaligini, antisanitariya bilan bog‘liq muammolarning kelib chiqishida ishtirok etishini, tungi koloniyalarida kuchli shovqinga sababchi bo‘lishini hisobga olgan holda, uning sonini boshqarish tadbirlarini amalga oshirish lozim.

XULOSA

Mayna biologiyasi, ekologiyasi va etalogiyasini o‘rganib shuni aytish mumkinki, tabiiy landshaftlarning antropogen landshaftlar bilan almashinishi ham mayna sonini oshishiga sabab bo‘lmoqda. Maynaning sonini shahar sharoitida boshqarish uchun ko‘payish vaqti tuxumlar uyaga qo‘yilgandan so‘ng, tuxumlarni minutiga 3-5 ming marta tezlikda aylanadigan sentrafugada aylantirib (ishlov berib) o‘z o‘rniga qo‘yish, maynaning kushandasi hisoblangan zag‘izg‘on va bo‘ktargi kabi yirtqichlarga zarar yetkazmaslik, shahar hududidagi axlatxonalarda chiqindilarning uzoq vaqt turib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, binolarni o‘z vaqtida ta’mirlash, karnaklarni himoyalash, shahardagi eski qurib ketgan daraxtlarni nazorat qilish, vidio va audio tasmalaridan foydalanish, umuman olganda maynani shaharga jalb etuvchi omillarni bartaraf etish kerak.

Buning uchun aholining madaniy-ekologik saviyasini rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Богданов О. П. “Ўзбекистон ҳайвонлари”. - Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983.-Б.188-189.

2. Дониёров Б. Н. Мусича(Streptopelia senegalensis Linnaeus)нинг биологияси ва экологиясига доир маълумотлар (Бухоро вилояти мисолида)//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2015.№3.Б.49-52.

3. Дониёров Б. Н. Қушларнинг қишлоқ ва ўрмон хўжалигидаги ўрни//Орол денгизи минтақасида юзага келган экологик офатнинг атроф-табиий муҳитга таъсири Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.-Бухоро,2015.-Б.120-121.

4. Дониёров Б. Н. Ёввойи қоя кўк каптарлари-хонакилаштирилган каптар зотларининг уруғбоши//Мактабда биология.-Тошкент,2015.№1.-Б.22-23.

5. Дониёров Б. Н. Кўк каптар(Columba livia Gmelin) биологиясига доир маълумотлар (Бухоро вилояти мисолида)//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2016.№2.Б.38-42.

6. Дониёров Б. Н. Бухорода учровчи қушларнинг шаҳардаги миллий-маданий ёдгорликларга таъсири//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2016.№4.Б.42-46.

7. Дониёров Б. Н. Бухоро шаҳри шароитида уя қилувчи қушлар//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов.- Переяслав-Хмельницкий, 2016.№3.-С.10-18.

8. Дониёров Б. Н. Зағизғон (Pica pica bactriana BP.) нинг биологияси (Бухоро вилояти мисолида)//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов.-Переяслав-Хмельницкий, 2016.№4.-С.9-13.

9. Дониёров Б. Н. Чўл соғи (Otus brucei) нинг биологияси (Бухоро вилояти мисолида)//Вопросы охраны птиц Узбекистана материалы республиканской конференции общества охраны птиц Узбекистана.-Ташкент,2017.С.39-42.

10. Дониёров Б. Н. Бухоро шаҳридаги миллий-маданий ёдгорликларни экотуризм ресурслари сифатида шаҳарда учровчи қушларнинг таъсиридан сақлаш//Халқаро “Ипак ва зираворлар” халқаро туризм фестивали “Бухорода туристик эркин иқтисодий ҳудудни яратиш имкониятлари ва ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги илмий-амалий конференция мақолалар тўплами.-Бухоро,2018.-Б.313-318.

11. Дониёров Б. Н. Туризм соҳасида аҳамиятли Бухоро вилояти агроценозларидаги манзарали ва сайроқи қушлар//«Ипак ва зираворлар» фестивали даврида 2018 йил 26 май куни Бухоро шаҳрида «Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти» мавзусида ўтказилган халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами.-

Бухоро,2018.-Б.169-173.

12. Дониёров Б. Н. Бухоро воҳасида қишлоқ қалдирғочи (Hirundo rustica rustica L.) нинг биологияси// Хоразм маъмун академияси ахборотномаси.-Хива, 2020.№1.Б.25-29.

13. Doniyorov B. N. Buxoro viloyatida ko‘k kaptar (Columba livia neglecta Hume, 1873) ning biologiyasiga doir materiallar//Хоразм маъмун академияси ахборотномаси.-Хива, 2021.№8.Б.17-21.

14. Doniyorov B. N. Materials on the biology of Streptopelia decaocto Friv. 1838 In Bukhara region//ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 2, February 2021

15. Симонов Б. А. “Певчие и декоративные птицы”. Т., “Узбекистан”, 1977.-С. 32, 80-84.

16. Холбоев Ф. Р. “Бухоро шаҳри қушларининг фаунаси, жамоаси ва экологияси”//Биология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Бухоро, 2000.-Б.147-149.

17. https://teacode.com/online/udc/59/598.294.html


DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojbc-02-02-02 Pages: 9-16

Oriental Journal of Biology and Chemistry **SJIF 2021-5.76, 2022-5.799**



ORIENTAL JOURNAL OF BIOLOGY AND CHEMISTRY

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojbc



INFORMATION ON THE BIOLOGY OF PICA PICA BACTRIANA

Boymurad N. Doniyorov
Senior Lecturer
Bukhara State University
Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Oasis of Bukhara, historical monument, egg, generation, nest, chick, bird, biology, ecology, areal, agrobiogeocenosis, morphometric, method, food, importance, increase, size, development, care, heating, behavioral reaction, couple.

Received: 01.10.22
Accepted: 03.10.22
Published: 05.10.22

Abstract: The article shows the relevance of the topic, the distribution of Pica pica bactriana, meeting characteristics and its study, the duration of the research and the methods used in the work, the number of nests found, nesting places, meeting places and their number, singing, mating. behavioral responses to breeding, number and location of nests, nesting interspecific relationships, nesting duration and use, nest shape, dimensions, nest location, nest construction, nest components and morphometric dimensions, oviposition and duration and brood care during incubation, changes in the egg, hatching, chick size, growth and development, images of reproduction, relation to the nest of the new generation Its biological characteristics and importance, such as its habitat, information about its nighttime, relationship with historical monuments, nutrition and food types, have been studied.

PICA PICA BACTRIANANING BIOLOGIYASIGA OID MA’LUMOTLAR

Boymurod N. Doniyorov
katta o‘qituvchi
Buxoro davlat universiteti
Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Buxoro vohasi, tarixiy obida, tuxum, avlod, uya, jo‘ja, qush, biologiya, ekologiya, areal, agrobiogeotsenoz, morfometrik, usul, oziq-ovqat, ahamiyati, ortishi, hajmi, rivojlanishi, parvarishi, isishi, xulq-atvor reaktsiyasi, juft.

Annotatsiya: Maqolada mavzuning dolzarbligi, Pica pica bactriananing tarqalishi, uchrash xususiyatlari va uning o‘rganilganligi, o‘tkazilgan tadqiqotlarning muddati va ishni bajarishda foydalanilgan usullar, topilgan uyalar soni, uyalash joylari, uchrash joylari va

soni, sayrashi, juft hosil qilishi kabi ko‘payish bilan bog‘liq xulqiy reaksiyalari, uyalar soni va joylashishi, uyalashda turlararo munosabatlar, uyalash muddati va undan foydalanish, uya shakli, o‘lchamlari, uyasining joylashishi, uya qurishi, uyaning tarkibiy qismlari va morfometrik o‘lchamlari, tuxum qo‘yishi va muddati hamda ularni isitish jarayonidagi nasl g‘amxo‘rligi, tuxumda bo‘ladigan o‘zgarishlar, jo‘ja ochishi, jo‘jalarining o‘lchamlari, o‘sishi va rivojlanishi, ko‘payishga doir tasvirlar, yangi avlodning uyasi bilan bog‘liqligi, tunashiga oid ma’lumotlar, tarixiy yodgorliklar bilan munosabati, oziqlanishi va oziqa xillari kabi biologik xususiyatlari hamda ahamiyati o‘rganilgan.

ИНФОРМАЦИЯ О БИОЛОГИИ PICA PICA BACTRIANA

Боймурад Н. Дониеров
Старший преподаватель
Бухарский государственный университет
Бувхара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Оазис Бухары, исторический памятник**,** яйцо, поколение, гнездо, цыпленок, птица, биология, экология, площадь, агробиогеоценоз, морфометрический, метод, пища, важность, увеличение, размер, разработка, забота, потепление, поведенческая реакция, пара.

Аннотация: В статье раскрывается актуальность темы, распространение Pica pica bactriana, особенности встречи и ее изучения, продолжительность проведенных исследований и использованные в работе методы, количество найденных гнезд, места гнездования, места встреч и количество, размножение, спаривание и т. д. связанные поведенческие реакции, количество и расположение гнезд, межвидовые отношения гнездования, продолжительность и использование гнезда, форма гнезда, размеры, расположение гнезда, конструкция гнезда, компоненты гнезда и морфометрические размеры, яйцекладка и продолжительность, а также выводок уход в процессе нагревания их, изменения в яйце, вылупление, размер, рост и развитие птенцов, изображения репродукции, отношение нового поколения к гнезду, сведения о ночи, связь с историческими памятниками, биологические особенности такие как питание и типы продуктов питания и их важность были изучены.

KIRISH

Zag'izg'on o'troq qush bo'lib, uni mamlakatimizning barcha viloyatlarida, shu jumladan, Navoiy va Buxoro viloyatida ham yil davomida uchratish mumkin. Zag'izg'on odamlar orasida bir nechta nomlar (hakka, ola hakka, ola shaq-shaq, qushlarning pandasi) bilan mashhur. Zag'izg'onning boshi, bo'yni, ko'kragining oldingi qismi, tanasining orqa tomoni, dumi, tumshug'i va oyoqlari qora rangda, yelkasi, ko'kragining orqa qismi va qorni oq rangda, dumi esa uzun bo'ladi. Zag'izg'onning umumiy ko'rinishi quyida 1-rasmda tasvirlangan



1-rasm. Zag'izg'onning umumiy ko'rinishi

ASOSIY QISM

Navoiy va Buxoro viloyatida zag'izg'onning uya qurishi, ko'payishi, rivojlanishi, umuman olganda barcha hayotiy jarayonlarini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjuddir. Masalan, uya qurishi uchun turli xil balandlikdagi daraxtlarning, xom-ashyoning mo'lligi, bolalarini boqishi uchun oziqaning serobligi, iqlimiy omillarning qulayligi va boshqalar. Zag'izg'onlarning juftlarga ajralishi bir holatda fevral oyining ikkinchi dekadasiga to'g'ri kelsa, ikkinchi holatda dekabr-yanvar oylarida ham juft hosil qilgan zag'izg'onlarni uchratish mumkin. Bu holat bohorning erta kelishi, havo haroratining ko'tarilishi, o'sayotgan yosh nisbatidagi individning barqaror yosh nisbatidagi individga o'zgarishi bilan izonlanadi. Quyida 2-rasmda juft hosil qilgan zag'izg'onlar tasvirlanadi



2-rasm. Juft hosil qilgan zag‘izg‘on

2007-2022 yillar davomida Navoiy va Buxoro viloyatining muhim uchastkalarida, jumladan, Sarmishsoyda, Xatirchi tum., Navbahor tum., eski shahar, bog‘lar va ko‘kalamzorlar, shahardagi qabristonlarning atroflarida, suv havzalarining bo‘ylarida, shahardagi turli ta’lim muassasalarining hovlisidagi va atrofidagi daraxtzorlarda hamda kasalxonalar atrofida kuzatish olib bordik. Kuzatishlar natijasida zag‘izg‘onlarning 17-turdagi daraxtlarda uya qurganligini guvohi bo‘ldik. Masalan, shumtol, chinor, tut, tuya archasi, gledichiya, virgen archasi, o‘rik, zarang, gujum, oq terak, tol, olma, maklyura, qora qarag‘ay, jiyda, bodom, gilos. Shundan eng ko‘p uyalar shumtol (135), chinor (40), tut (16) daraxtlarida joylashgan. Uyaning qurilishida ikkala jins ham ishtirok etadi. Uyaning materiali asosan uya qurilayotgan daraxtning bir yillik quruq shohalari, yaqin atrofdagi daraxtlarning quruq shohalari, bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik o‘simliklarning poyalari hamda tana qismlaridan, rangli similar, oq jangal va loydan tashkil topadi. Ayrim uyalarda umuman loy ishlatilmasligini ham ko‘rish mumkin. Bu holat uya qurulishining kech boshlanganligi, iqlimning quruq kelganligi bilan tushuntiriladi. Uyaninig ichki qismini madaniy va yovvoyi o‘simliklarning nafis ildizlari, hayvonlarning junlari bilan to‘shaydi. Zag‘izg‘on uyalari quyida 3-rasmda tasvirlangan




3-rasm. Zag‘izg‘on uyalari

Uyaning ustki qismi (tomi) ni tuxum qo‘yishdan oldin qurigan daraxt shohlari, turli xil simlar, oq va qizil sho‘ra poyalari hamda oq jangal bilan mustahkam bostiradi. Uyaning ustini bostirishi, uyadagi tuxumlarni kuchli issiqlikdan, yorug‘likdan, insonlar va boshqa mexanik ta’sirlardan, daydi mushuk yoki tulkilardan muhofaza qilishi bilan aloqador bo‘lishi mumkin. Ammo, uyaning yon tomonida kirib chiqish uchun tuynuk bo‘ladi. Ba’zida usti (tomi) ochiq uyalarni ham ko‘rish mumkin. Bu holat uya qurilayotgan joyga bog‘liq bo‘lsa kerak. Uyaning (n=22) o‘lchami: balandligi 26,0-68,0 (47,0) sm, eni 35,0-62,0 (43,0) sm, kosasining chuqurligi 12,0-18,0 (13,0) sm bo‘ladi.

Uyalarda tuxumlar har kuni yoki kunora qo‘yiladi. Uyalarda tuxumlarning soni 3-5 ta, ko‘pincha 4 ta, ba’zan 6-7 ta bo‘ladi. Tuxumlarning po‘chog‘i och ko‘kimtir bo‘lib, qo‘ng‘ir-qoramtir xollari bor. Xollar poyanak qismida tig‘iz bo‘lib, uchki qismiga tomon siyraklashib boradi.

Tuxumlarini 2,5-3,0 hafta bosib, isitadi. Tuxumlarni isitishda urg‘ochisi peshqadamlik qiladi. Zag‘izg‘onlar orasida jinsiy demorfizm ko‘zga tashlanmaydi. Biroq, erkagi va urg‘ochisini ajratishda laboratoriya usuli hamda gavdasining kichikligi, rangining xiraligi, gavdasining ko‘krak-qorin qismi pat va parlarining to‘kilganligi kabi morfologik belgilarga asoslanib ajratish mumkin. Tuxumdan jo‘ja chiqish arafasida tuxum massasi kamayadi, po‘chog‘i chatnaydi. Bu hodisa tuxum ichidagi individning perenatal davrdan postnatal davrga o‘tayotganligi bilan aloqador bo‘lsa kerak. So‘ngra, tuxumlardan quloq teshigi yopiq, ko‘zlari ojiz, tanasi patsiz, nimjon va zaif jish jo‘jalar chiqadi. Tuxumlardan jo‘jalar 2 kunda, odatda 1-kuni 3-4 tasi, 2-kuni qolganlari ochib chiqishadi. Buning sababini tuxumlar uyaga bir kunda qo‘yilmaganligi bilan izohlash mumkin. Yangi ochib chiqgan jo‘jalarning (n=8) og‘irligi 6,3-9,8 gramm bo‘ladi. Rivojlanishning 5-kuni quloq teshiklari, 6-kuni ko‘zlari ochiladi. Jo‘jalar bir haftalik bo‘lganda pat va parlarning rivojlanganligini kuzatish mumkin. Jo‘jalar 10-12 kunlik bo‘lganda rangi to‘qlashib, tashqi qiyofasi, hatti-harakati ota-onasiga o‘xshab boradi. Tuxumdan jiqqan jo‘jalar 27 kundan so‘ng uyasidan uchib chiqadi. Zag‘izg‘onning ko‘payish sikli quyidagi 4-rasmda

keltirilgan



Tuxumlarning uyada joylashishi	Tuxumdan chiqqan 1 kunlik jish jo‘jalar
5-6 kunlik jo‘jalar va otalanmagan tuxum	10-12 kunlik jo‘jalar
Uyasidan uchib chiqqan bir oylik jo‘ja	Voyaga yetgan zag‘izg‘on

4-rasm. Zag‘izg‘onning ko‘payish sikli

Qo‘yilgan tuxumlardan to‘liq jo‘jalarning yorib chiqishi va sog‘lom voyaga yetishi, uyaning

eski yoki yangiligiga, tuzilishiga va koʻpayish mavsumuga bogʻliq.

XULOSA

Zagʻizgʻon, asosan zararkunanda hasharotlar va ularning lichinkalari bilan[1], bundan tashqari qish faslida oʻlaksalar bilan, har xil donli ekinlarning urugʻlari, oziq-ovqat qoldiqlari, kemiruvchilar (uy va dala sichqonlari) va boshqa ozuqalar bilan oziqlanadi. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, zagʻizgʻonning zararidan koʻra foydasi koʻproqdir. Jumladan, u zararkunanda hasharotlarni qirish bilan bir qatorda, tabiiy sanitarlik vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun, zagʻizgʻon va uning polaponlariga ziyon yetkazmaslik, uya qurilgan daraxtlarni kesmaslik va ularni buzmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Богданов О. П. “Ўзбекистон ҳайвонлари”. - Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983. -Б.189-190.
2. Дониёров Б. Н. Мусича(Streptopelia senegalensis Linnaeus)нинг биологияси ва экологиясига доир маълумотлар (Бухоро вилояти мисолида)//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2015.№3.Б.49-52.
3. Дониёров Б. Н. Қушларнинг қишлоқ ва ўрмон хўжалигидаги ўрни//Орол денгизи минтақасида юзага келган экологик офатнинг атроф-табиий муҳитга таъсири Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. -Бухоро, 2015.-Б.120-121.
4. Дониёров Б. Н. Ёввойи қоя кўк каптарлари-хонакилаштирилган каптар зотларининг уруғбоши//Мактабда биология.-Тошкент,2015.№1.-Б.22-23.
5. Дониёров Б. Н. Кўк каптар(Columba livia Gmelin) биологиясига доир маълумотлар (Бухоро вилояти мисолида)//Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро,2016.№2.Б.38-42.
6. Дониёров Б. Н. Бухорода учровчи қушларнинг шаҳардаги миллий-маданий ёдгорликларга таъсири//Бухоро давлат университети илмий ахбороти. -Бухоро,2016.№4.Б.42-46.
7. Дониёров Б. Н. Бухоро шаҳри шароитида уя қилувчи қушлар//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов. - Переяслав-Хмельницкий, 2016.№3.-С.10-18.
8. Дониёров Б. Н. Зағизғон (Pica pica bactriana BP.) нинг биологияси (Бухоро вилояти мисолида)//Актуальные научные исследования в современном мире Сборник научных трудов.-Переяслав-Хмельницкий, 2016.№4.-С.9-13.
9. Дониёров Б. Н. Чўл соғи (Otus brucei) нинг биологияси (Бухоро вилояти мисолида)//Вопросы охраны птиц Узбекистана материалы республиканской конференции общества охраны птиц Узбекистана.-Ташкент,2017.С.39-42.

10. Дониёров Б. Н. Бухоро шаҳридаги миллий-маданий ёдгорликларни экотуризм ресурслари сифатида шаҳарда учровчи қушларнинг таъсиридан сақлаш//Халқаро “Ипак ва зираворлар” халқаро туризм фестивали “Бухорода туристик эркин иқтисодий ҳудудни яратиш имкониятлари ва ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги илмий-амалий конференция мақолалар тўплами.-Бухоро,2018.-Б.313-318.
11. Дониёров Б. Н. Туризм соҳасида аҳамиятли Бухоро вилояти агроценозларидаги манзарали ва сайроқи қушлар//«Ипак ва зираворлар» фестивали даврида 2018 йил 26 май куни Бухоро шаҳрида «Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти» мавзусида ўтказилган халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами.-Бухоро,2018.-Б.169-173.
12. Дониёров Б. Н. Бухоро воҳасида қишлоқ қалдирғочи (Hirundo rustica rustica L.) нинг биологияси// Хоразм маъмун академияси ахборотномаси.-Хива, 2020.№1.Б.25-29.
13. Doniyorov B. N. Buxoro viloyatida ko‘k kaptar (Columba livia neglecta Hume, 1873) ning biologiyasiga doir materiallar//Хоразм маъмун академияси ахборотномаси.-Хива, 2021.№8.Б.17-21.
14. Doniyorov B. N. Materials on the biology of Streptopelia decaocto Friv. 1838 In Bukhara region//ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 2, February 2021


DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojbc-02-02-03 Pages: 17-22

Oriental Journal of Biology and Chemistry **SJIF 2021-5.76, 2022-5.799**



ORIENTAL JOURNAL OF BIOLOGY AND CHEMISTRY

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojbc



PREVENTION OF STEEL CORROSION IN NEUTRAL ENVIRONMENTS

Alfiya Oserbayeva
PhD., Senior Lecturer
Tashkent Chemical-Technological Institute
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: oserbaevaa@mail.ru

Asadbek Jabbarov
Student
Tashkent Institute of Chemical Technology
Tashkent, Uzbekistan

Nafisa Ismailova
Senior Lecturer
Tashkent Chemical-Technological Institute
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: inhibition, gravimeter, thermodynamic, steel corrosion, inhibitor, protective mechanism, activation energy, Gibbs energy corrosion rate, protective effect

Received: 12.10.22
Accepted: 14.10.22
Published: 16.10.22

Abstract: In this work, the protective effect of new nitrogen, amine and phosphorus containing inhibitors synthesized on the basis of local raw materials and bottoms from the vacuum distillation of monoethanolamine in the chemical industry of the Rapublic of Uzbekistan was studied. It has been shown that a multi-component inhibitor containing hydroxyethyldendiphosphonic acid (HEDP), sodium hydroxide, zinc oxide, glycerol, water, and monoethanolamine vacuum distillation residue (COMEA) can be used to protect steel equipment and pipelines in the oil and gas industry. The change in the intensity of the absorption spectra of active functional groups of inhibitors is discussed by IR spectroscopy. Parameters such as corrosion current, stationary potential, corrosion rate, degree of protection, and the value of effective activation energy ΔE_{eff} are determined corrosion.

NEYTRAL MUHITDA PO'LAT KORROZIYASINI OLDINI OLISH

Alfiya Oserbayeva
Phd., katta o'qituvchi
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: oserbaevaa@mail.ru

Asadbek Jabborov
Talaba
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Toshkent, O'zbekiston

Nafisa Ismoilova
Katta o'qituvchi
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: inhibisyon, gravimetriya, termodinamika, po'lat korroziyasi, inhibitor, himoya mexanizmi, faollashuv energiyasi, Gibbs energiyasi, korroziya tezligi, himoya ta'siri.

Annotatsiya: Bu ishda O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatida monoetanolaminni vakuumli distillashdan mahalliy xomashyo va tublar asosida sintez qilingan yangi azot, amin va fosfor saqlovchi ingibitorlarning himoya ta'siri o'rganildi. Gidroksietildendifosfonik kislota (HEDP), natriy gidroksid, sink oksidi, glitserin, suv va monoetanolamin vakuumli distillash qoldig'i (COMEA) o'z ichiga olgan ko'p komponentli inhibitor neft va gaz sanoatida po'lat uskunalari va quvurlarini himoya qilish uchun ishlatilishi mumkinligi ko'rsatilgan. . Inhibitorlarning faol funktsional guruhlari yutilish spektrlarining intensivligining o'zgarishi IQ spektroskopiyasida muhokama qilinadi. Korroziya oqimi, statsionar potentsial, korroziya tezligi, himoya darajasi va samarali faollashuv energiyasining qiymati ΔE_{eff} kabi parametrlar korroziya aniqlanadi.

ИНГИБИРОВАНИЕ КОРРОЗИИ СТАЛЕЙ В НЕЙТРАЛЬНЫХ СРЕДАХ

Альфия Осербаева
PhD., старший преподаватель
Ташкентский химико-технологический институт
Ташкент, Узбекистан
